



FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**2023- YIL
YANVAR-MART
OYLARIDA
ASOSIY
KAPITALGA
INVESTITSIYALAR**






2023-yilning yanvar-mart oylarida 3893,9 mlrd. soʻm asosiy kapitalga investitsiyalar oʼzlashtirilib, ularning 56,4 %i yoki 2196,7 mlrd. soʻmi jalb etilgan mablagʼlar hisobidan moliyalashtirilgan boʼlsa, korxona, tashkilot va aholining oʼz mablagʼlari hisobidan 43,6 % yoki 1697,2 mlrd. soʻm moliyalashtirildi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2022-yildagi ulushiga nibatan 9,4% punktga koʼpaydi, 13,0 %ni yoki 506,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 3387,2 mlrd. soʻm yoki jami investitsiyalarning 87,0 % oʼzlashtirilib, 2022- yildagi koʼrsatkichga nisbatan 9,4% punktga kamaydi.



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, mldr.so'm



2023-yilning yanvar-mart oylarida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 1004,1 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 25,8 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 17,8 % i yoki 693,1 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.


To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 617,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 6,3 % punktga kamaydi, 15,9 %ni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm	Markazlashgan investitsiyalar, %da	Markazlashmagan manbalar, %da
Farg'ona viloyati	3893,9	13,0	87,0
Farg'ona sh.	1104,9	20,6	79,4
Qo'qon sh.	188,0	3,7	96,3
Quvasoy sh.	107,6	10,1	89,9
Marg'ilon sh.	272,0	1,4	98,6
Oltiariq	187,9	19,9	80,1
Qo'shtepa	211,0	8,1	91,9
Bag'dod	125,2	13,7	86,3
Buvayda	78,6	4,3	95,7
Beshariq	125,3	7,8	92,2
Quva	216,3	5,1	94,9
Uchko'prik	163,1	5,2	94,8
Rishton	197,3	17,9	82,1
So'x	35,5	13,0	87,0
Toshloq	200,9	9,5	90,5
O'zbekiston	145,6	8,4	91,6
Farg'ona t	198,7	21,4	78,6
Dang'ara	201,7	7,9	92,1
Furqat	44,1	8,2	91,8
Yozyovon	90,2	22,0	78,0

Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 556,9 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 14,3 % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 6,0 % punktga ko'paydi), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 51,1 mlrd.so'm (1,3 % va 0,5 % punktiga kamaydi), kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 1133,1 mlrd. so'm (29,1 % va 29,0 % punktga kamaydi), Respublika budjeti 420,9 mlrd. so'm (10,8 % va 9,5 % punktga ko'paydi), Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 34,7 mlrd. so'm (0,9 % va 0,4 % punktga ko'paydi) miqdorida asosiy kapitalga inestitsiyalar o'zlashtirildi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan, %da




Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlarini moliyalastirish manbalari bo'yicha yuqori ko'rsatkich korxona mablag'i investitsiyalarda kuzatilib, 2022 - yilning mos davriga nisbatan 13,0 %ga ko'paydi.

2023- yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Investitsiyalar hajmi, mlrd. soʻm	Oʼsish surʼati, %da	Viloyatida ulushi, %da
Farg’ona viloyati	3893,9	132,3	100,0
Farg’ona sh.	1104,9	193,8	28,4
Qoʻqon sh.	188,0	68,8	4,8
Quvasoy sh.	107,6	64,2	2,8
Margʼilon sh.	272,0	185,7	7,0
Oltiariq	187,9	183,0	4,8
Qoʼshtega	211,0	91,9	5,4
Bagʼdod	125,2	118,0	3,2
Buvayda	78,6	156,8	2,0
Beshariq	125,3	101,6	3,2
Quva	216,3	256,6	5,6
Uchkoʼprik	163,1	87,7	4,2
Rishton	197,3	173,9	5,1
Soʼx	35,5	127,9	0,9
Toshloq	200,9	77,5	5,2
Oʼzbekiston	145,6	77,4	3,7
Farg’ona t	198,7	166,0	5,1
Dangʼara	201,7	216,3	5,2
Furqat	44,1	88,5	1,1
Yozyovon	90,2	167,3	2,3

2023- yil yanvar-mart oylarida investitsiyalarning o'sish sur'atlari, %da




Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha 2022- yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 256,6 % Quva tumani kuzatildi. Bu asosan «Bahodir Log'on Tekstil» MChJ QK paxtachlik klasteri faolatini kengaytirish hisobiga amalga oshirildi.

Shuningdek, Dang'ara tumani ham yuqori o'sish sur'ati kuzatilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 216,3 %ni tashkil qildi. Bunday natijani «Musavartex» MChJ to'qimachillik mahsulotlari (mato) ishlab chikarish tashkil etdi.

Farg'ona shahrida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining 2022- yilning mos

davriga nisbatan 193,8 %ni tashkil etib, bu esa Farg'ona neftni qayta ishslash zavodini modernizatsiya qilishning 1-bosqichi bo'yicha o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog'liq.

Mashina, uskuna, inventar



Farg'ona viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 1501,5 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 38,6 %ini tashkil etdi, qurilish-montaj ishlari bo'yicha 2111,7 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 54,2 %) va boshqa xarajatlarga 280,6 mlrd. so'm (7,2 %) o'zlashtirildi.

Shahar, tumanlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Oltiariq tumanida kuzatildi – 58,0 % yoki 109,0 mlrd. so'm.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Dang'ara tumanida kuzatilib, 78,1 % ni yoki 157,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirildi. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 2281,3 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 58,6 % ini tashkil etdi.


Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Rishton tumanida kuzatilib, u 86,8 % yoqi 171,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 918,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va respublikadagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 23,6 % ini tashkil etdi. Qolgan 17,8 %, ya'ni 693,8 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.


Shahar , tumanlar bo'yicha yangi qurilish ishlaringin ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da



Shahar, tumanlar bo'yicha kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya uchun investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, %da




Shahar, tumanlar bo'yicha boshqa yo'nalishlarda o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, %da




Shahar, tumanlar bo'yicha mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, %da



SHAHAR, TUMANLAR BO'YICHA QURILISH-MONTAJ ISHLARIGA INVESTITSIYALAR ULUSHI, JAMI INVESTITSIYALARGA NISBATAN, %DA



Shahar, tumanlar bo'yicha boshqa xarajatlar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, %da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishlash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 1412,1 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 36,3 % i o'zlashtirilgan.

Qayta ishlash sanoati tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:


**OZIQ-OVQAT,
ICHIMLIKLER VA TAMAKI
MAHSULOTLARINI
ISHLAB CHIQARISH**
84,8 mlrd. so'm
Ulushi 2,2 %

**TO'QIMACHILIK
MAHSULOTLARI ISHLAB
CHIQARISH**
598,6 mlrd. so'm
ulushi 15,4 %


**BOSHQA NOMETALL MINERAL
MAHSULOTLAR ISHLAB
CHIQARISH**
249,2 mlrd. so'm
ulushi 6,4 %

Tog‘-kon sanoatida jami 14,4 mlrd.so‘m yoki viloyatida bo‘yicha jami investitsiyalar hajmining 0,4 %i o‘zlashtirilgan bo‘lib, uning tarkibidan 18,0 mlrd. so‘mi xom neft va tabiiy gaz qazib chiqarish sohasiga tegishlidir.

Viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan % da



Ishlab chiqarish sanoati
Axborot va aloqa
Tog‘-kon sanoati
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi
Turar-joy qurilishi



Boshqa faoliyat turlari
Elektr, gaz bilan ta’minlash
Qurilish
Sog‘liqni saqlash
Ta‘lim

Shahar, tumanlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

	Jami, mlrd. so'm	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlan- magan boshqa investitsiya va kreditlar
Farg'ona viloyati	1184,2	617,2	51,1	515,9
Farg'ona sh.	161,3	36,3	51,1	73,9
Qo'qon sh.	68,4	62,5		5,9
Quvasoy sh.	29,4	16,7		12,7
Marg'ilon sh.	71,2	21,9		49,3
Oltiariq	42,8	0,0		42,8
Qo'shtepa	138,4	0,0		138,4
Bag'dod	36,0	0,0		36
Buvayda	18,7	17,0		1,7
Beshariq	79,7	78,8		0,9
Quva	56,8	56,8		0
Uchko'prik	105,0	88,0		17
Rishton	52,2	18,2		34
So'x	0,0	0,0		0
Toshloq	58,8	8,9		49,9
O'zbekiston	96,8	95,3		1,5
Farg'ona t	79,8	61,1		18,7
Dang'ara	47,9	14,7		33,2
Furqat	15,6	15,6		0
Yozyovon	25,4	25,4		0


2023- yil yanvar-mart oylarida 1184,2 mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 30,4 %i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o'zlashtirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 623,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va qolgan 561,2 mlrd. so'm xorijiy kreditlar hisobiga to'g'ri keldi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 617,2 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida 51,1 mlrd. so'm xorijiy kreditlar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 67,5 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi




IJTIMOY SOHA OBYEKTALARINI ISHGA TUSHIRISH

Jami turar-joylar
268,6 ming. kv.m

Yakka tartibda qurilgan
turar-joylar
268,6 ming kv.m

Namunaviy loyihibar asosida
qurilgan turar-joylar
- **ming kv.m**



Turar-joylarni ishga tushirish	Xonadonlar soni, birlik	Maydoni, ming kv.m
Farg'ona viloyati	1098	268,6
Farg'ona sh.	126	36,2
Qo'qon sh.	129	30,1
Quvasoy sh.	25	4,6
Marg'ilon sh.	86	20,0
Oltiariq	76	19,8
Qo'shtepa	32	9,1
Bag'dod	28	6,1
Buvayda	41	9,6
Beshariq	64	7,4
Quva	94	28,9
Uchko'prik	38	7,8
Rishton	39	7,4
So'x	25	4,0
Toshloq	102	30,2
O'zbekiston	14	3,0
Farg'ona t	69	17,7
Dang'ara	39	9,3
Furqat	16	3,3
Yozyovon	55	14,1

Qishloq joylar ulushi



Suv tarmog'i qurilishida jami 7,0 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilib, ulardan 84,3 % i aholi mablag'i, 10,0 % i Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi va 5,7 % i boshqa manbalar hisobidan o'zlashtirildi.



Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: **(73) 241-98-42**

